QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MUNOJOT: TUSH VA HUSH ORALIG‘IDAGI OLAM

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.055

Saydazimova Sanobar Samar qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
saidazimova2595@gmail.com
+99899 175 15 33

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek qissalaridagi “paranormal epizodlar” muallifning individual dunyoqarashi, jahon adabiyotining ta’sir doirasi, mifologik tasavvurlar va xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanish asosida shakllanib, yangicha talqin va yondashuvlar orqali badiiy matnga kirib kelganligi aniqlangan. Shuningdek, Isajon Sultonning “Munojot” qissasi misolida g‘ayritabiiy voqelik, ya’ni “paranormal epizodlar”ning badiiy funksiyasi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: G‘arib, paranormal epizod, mistika, reinkarnatsiya, so‘fiylik, paranormallik, jin.

Abstract: This article examines how “paranormal episodes” in modern Uzbek novellas are shaped by the author’s individual worldview, the influence of world literature, mythological perceptions, and inspiration from folklore, and how they enter literary texts through new interpretations and approaches. In addition, using Isajon Sulton’s novella “Munojot” as an example, the artistic function of supernatural reality, namely “paranormal episodes,” is analyzed.

Keywords: G‘arib, paranormal episode, mysticism, reincarnation, Sufism, paranormality, jinn.

KIRISH. Jahon adabiyoti va adabiy-estetik tafakkurdagi adabiy tur, janrlar va ular tarkibidagi muhim komponentlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni jarayonda vujudga kelgan vositalardan biri – zamonning to‘rtinchi, makonning yettinchi o‘lchamida sodir bo‘ladigan “paranormal epizodlar” bo‘lib, ular adabiy tafakkur taraqqiyotida o‘ziga xos poetik tizim sifatida shakllangan. Bu hodisa badiiy adabiyotni ham ruhiy, ham falsafiy, ham g‘ayritabiiy tasvirlar bilan boyitgan. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek nasriga noodatiy motivlar, an’anaviy voqelikning buzilishi, shayton, arvoh, jin, iblis, ajina, qoraxayol singari obrazlarning paydo bo‘lishi va ularning badiiy-funksional yuklamasi zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Zamonaviy o‘zbek qissalari turli aspektlarda o‘rganilgan. Jumladan, qissachilik tarixi, tadrijiy bosqichlari, o‘zbek adabiyotida ilk qissalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, poetik takomili, janr taraqqiyotiga xos spetsifik jihatlar, an’anaviy realistik talqin, modernizm yo‘nalishidagi qissalar tahlili, uslub rang-barangligi, syujet, konflikt, obrazlar tizimi kabi nazariy muammolar M.Baxtin, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, O‘.Nosirov, H.Boltaboyev, D.Quronov, U.Jo‘raqulov, B.Karimov, A.Ulug‘ov, A.Qozixo‘jayev kabi adabiyotshunos olimlarning monografiya va maqolalarida qissa janrining poetik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. T.Jo‘rayev, D.Xoldorov, U.Rasulova, M.Boboxonov, M.Rustamova, F.Radjabova, F.Burxonova, N.Cho‘liyeva, Y.Eshmatova, S.Saidmurodova kabi olimlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida qissa janri haqida tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbek folklorshunosligida O.Qayumov, M.Rajabova, M.Qo‘chqorova, S.Nurillayeva, B.Jovliyev, N.Raxmatullayev mifologik obrazlar, neomifogizm xususiyatlarini tahlil qilishgan. Ammo zamonaviy o‘zbek qissalarida “paranormal epizodlar” muammosi aynan shu tarzda qo‘yilib, tushunchaning terminologik xossalari belgilanmagan, nazariy asoslanmagan va uning badiiy funksiyasi maxsus monografik planda o‘rganilmagan.

NATIJALAR. Zamonaviy o‘zbek qissalaridagi “paranormal epizodlar”ning badiiy vazifasi Isajon Sultonning “Munojot” qissasi misolida ochib berilgan. Paranormal epizodlar”ni o‘rganish natijasida genezisi, sinkretik holati va sintezlashuv jarayonlari aniqlangan, shuningdek, paranormal voqeliklar modernizm poetikasiga xos tamoyillar bilan bog‘liq ekanligi masalalari haqidagi nazariy xulosalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan zamonaviy o‘zbek qissalari asosida “paranormal epizodlar” quyidagi besh tipga: illyuzion va galyutsinatsion, mistik, metafizik, psixologik, simvolistik paranormal epizodlarga ajralishi aniqlandi. Bu tasniflar, aslida nisbiy bo‘lib, “paranormal epizodlar”ni yana boshqa turlarga ajratish mumkin.

MUHOKAMA. Isajon Sultonning “Munojot” qissasi g‘ayritabiiy va qo‘rqinch hodisaning misli to‘fondek qishloqqa kirib kelishi va qissa oxirida qanday kirib kelgan bo‘lsa shunday tark etishi tasvirlari, G‘arib obrazining dunyoga o‘zgacha nigoh bilan qarash falsafasi va noodatiy ijod namunalarida, Adol opaning qishloqdoshlari va amaki bilan munosabati hamda asarda mantiqsizdek tasavvur uyg‘otadigan mashhur rassom haqidagi epizod voqealaridan iborat. Asarda paranormal holatlar G‘arib obrazining g‘ayrioddiy xarakter qirralari, oddiy odamlardan farli o‘laroq fikrlash tarzi, shuningdek, tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olamiga o‘zgacha nigoh tashlashida ko‘rinadi.

Qissa voqealari g‘ayritabiiy hodisaning ta’rifi bilan boshlanadi. *“…Balo kutilmaganda keldi… Hech qancha vaqt o‘tmay Toshkelinchak tepasida osmon bo‘yi keladigan qoramtir narsa jonlandi. Yulduzli osmon toqida uni bemalol ko‘rish mumkin edi. Sharpa tez harakatlanib, tungi samoni tobora enlay boshladi. Bir uchi to‘lin oyga yetay-yetay deganda ikkinchi uchi yerga – xuddi o‘sha, mirzateraklar soyasi tushib turgan joyga yetib keldi. Bu yer qishloqning*

eng chekkasi, jingillar va ajinagullar to‘dalashib o‘sgan chakalakzor edi”. [3;95-bet] Ayni voqealardan so‘ng osmonda qora ko‘lanka misoli qora sharpalar paydo bo‘lishi va yaproq orqali quyun hosil qilgan jinqarchaning sirli tasvirlari keltiriladi. Jinqarcha, bizningcha, jinning bir ko‘rinishi bo‘lib, quyun yordamida qishloq ustiga qora ko‘lanka misolida balo-qazolarni boshlab keluvchi paranormal vositadir.

Isajon Sultonning aksariyat asarlarida peyzaj tasvirlari muallifning badiiy niyatini aks ettirishda yetakchi vositalardan biri sanaladi. “Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sir usulida tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmana his etamiz”. [4;262-bet] Aynan ushbu fikrlar isboti “Munojot” qissasida paranormal voqelikni aks ettirish uchun tabiat tasvirlariga sirli hodisotlarning singdirilishida ko‘rinadi.

Muallif tabiat tasviridagi har bitta detalni: qora va quyuq bo‘yoqli manzaralar, ko‘lanka va sharpa, jinqarcha va quyun, ovloq va chakalakzor hududlar, qonxo‘r maxluq va qora hovur, oq kiyimli odam tasvirlari paranormal voqelikka monand aks ettiriladi. Xususan, asarda keltirilgan *“…tungi osmon toqida quyunchaga minib uchib yurgan jinqarchani, o‘lik kengliklar uzra bor ovozi bilan bo‘kirgan qonxo‘r maxluqni, osmondan asta surilib kelib, cho‘zilgancha yerga tushayotgan mudhish sharpani-yu qora hovur ko‘tarilayotgan qora chakalakzor…”* [3;96-bet] ni tasavvur qilgan o‘quvchining ongida beixtiyor qo‘rquv paydo bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, asarda quyunda uchib yurgan jinqarcha va jarlikda biqsib yotgan badbashara jondorlar va maxluqlar Tojiboyning xo‘rozi uchinchi marta qichqirganidan so‘ng yo‘qlik qa’riga singib ketadi. Aynan shunday tasvirlar rus adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri Gogolning “Viy” qissasida ham uchraydi. Jumladan, ibodatxonadagi jinlar o‘yini va ularning Xoma Brutga tahdidi xo‘roz qichg‘iridan so‘ng g‘oyib bo‘ladi. [6;304-bet] Ayni ikki asardagi o‘xshash voqelik paranormal holatlarning rus va o‘zbek adabiyotidagi mushtarak jihatlarini belgilaydi.

Asar qahramoni “G‘arib o‘ta iste’dodli o‘smir; u o‘zgalardan boshqacharoq fikrlaydi, ko‘zlari uncha-muncha odam ko‘rmaydigan narsalarni tiniq ko‘radi. Qissa qahramoni ko‘ziga har xil odamlar ko‘rinadi: u o‘sha odamlar bilan bemalol gaplashadi, bahslashadi; goh qo‘shiq aytadi, goh yig‘laydi. Bunday holatlar sof mistika – so‘fiylik, zohidlik bo‘lib tuyulishi mumkin”. [5;192-bet]

Paranormal holatlar G‘arib tabiatidagi g‘ayrioddiylik bilan uyg‘un va bir-biriga chambarchas holatda tasvirlanadi. U *“…ko‘zim uyquga ketay-ketay deganda ko‘rina boshlaydi shunaqa sharpalar. Tush bilan xushning orasidan qalqib chiqishadi… O‘sha odam tepamda uzoq o‘tiradi”,* [3] – deydi. Bu tasvirlar G‘arib obrazidagi illyuzion va galyutinatsion holatlar bilan bog‘liq. U o‘zining botiniy olamida yolg‘iz, ruhan o‘zga olamda sayr etadi; onasining ta’biri bilan aytganda, jismonan hayot kechirishga noqobil, sababi yoshi o‘n birda bo‘lishiga qaramasdan ajdodlaridan meros qolgan dehqonchilik yumushlarini, xususan, bodring bilan

qovun urug‘ini bir-biridan ajrata olmaydi. Ammo G‘arib oddiy insonlar ko‘ra olmaydigan, ilg‘amaydigan narsalarni, hodisotlarni anglay oladi, tafakkur dunyosi keng, qalbi she’riyatga va san’atga oshufta. Shoir Boborahim Mashrab g‘azaliyoti va hayot yo‘li unga juda yaqin. Zero, G‘arib ham onasining qornida paytidayoq yig‘lagan, tug‘ilganida ham ko‘zlarida nurli ifoda aks etib turardi. G‘arib obrazi muallif tomonidan ilohiy va ruhoniy quvvatga ega bo‘lgan, ichki intiutiv bilim bilan his etish qobilyati borligini, “tush va hush” orasidagi olamda ekanligiga asarning ko‘p o‘rinlarida ishora qiladi.

Xususan, “*Tush va o‘ng oralig‘ida qandaydir oppoq kiyingan kimsalarning kelishi va ularning insonga o‘xshamasligi, tasavvurida maysalarning gapirishi hamda go‘yo jonsizday tuyulgan narsalarning ham aslida jonli ekanligi kabi voqealarning bejiz emasligini u aniq-tiniq bilib turardi”,* [3;120-bet] kabi tasvirlar yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

G‘aribning dunyoga kelishi otasining vafotidan keyin bahor faslida Ollohning rahmati yoqqan yomg‘ir paytida va shom chog‘ida ro‘y beradi. Adol opa ellik yoshga yetib erishgan onalik baxti turmush o‘rtog‘ining baxtsiz halokatini (olti oycha burun traktori bilan zovurga ag‘darilib vafot etgan) unutishga sabab bo‘ladi. Mohiyatan muallif unga uch ism: Mashrab, Yodgor, G‘aribning zalvorli yukini yuklab qo‘yadi. Onaning istagi – Mashrab (ona qornida yig‘lagani uchun), tog‘aning niyati – Yodgorbek (pochchasidan yodgorlik bo‘lishi uchun), 107 yoshga kirgan, cho‘rtkesar Fotima kampirning so‘nggi so‘zi – G‘arib edi. Bejizga, muallif so‘nggi nuqtani Fotima kampir izniga yuklamaydi, sababi uning so‘zini ikki qilishga hech kimning haddi sig‘mas edi.

Ma’lumki, paranormal hodisalar biz yashayotgan o‘lchamdan tashqarida, ya’ni vaqt va makonning noma’lum qatlamlarida sodir bo‘ladi. Muallif ta’biri bilan aytganda bular – *shuur bilan anglanadigan va aql bilan tasdiqlanadigan narsalar emas edi – ular faqat his qilinar edi*. [3;128-bet] Muallif G‘arib obrazining g‘ayritabiiy xarakterini tasvirlashda aynan ushbu hodisalarni mohirlik bilan asar bag‘riga singdirib yuboradi. Xususan, inson vafot etganidan so‘ng uning ruhi bir tanadan ikkinchi bir tanaga yoki hayvonot va nabotot olamida qayta tirilishi haqidagi nazariya, ya’ni reinkarnatsiya G‘arib misolida ilgari suriladi. Asarda keltirilgan, o‘zining bir vaqtlar daraxt bo‘lganini va butaga aylangan zohid haqidagi tasvirlar yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Bunday estetik nuqtai nazar jahon adabiyotiga xos bo‘lib, so‘ngi yillarda o‘zbek adabiyotida o‘zgacha talqinda bo‘y ko‘rsata boshladi. Ayniqsa, Isajon Sultonning boshqa asarlarida ham, jumladan, muallifning “Qismat” hikoyasida vafot etgan otaning baliqqa aylanib qolishi va uni farzandlari jazillagan tovada kuydirishi, bu esa otaning gunohlari kafforati ekanligini farzandlari tomonidan ta’kidlanishi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu haqida adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov: “G‘arb ma’naviyatini, xususan, adabiyotini yemirib, bugungi ruhiy inqiroz chohiga tashlagan ikki madaniy-falsafiy faktor bor. Ularning biri, hind va xitoyning buddaviy e’tiqodi asosida turuvchi reinkarnatsiya – ruhning bir jonzoddan ikkinchisiga ko‘chishi haqidagi ta’limot bo‘lib, qachonlardir unga ergashgan beqaror G‘arb

sinov uchun yaralmish insonning tozarish imkoniyatlari cheksizligiga soddalarcha ishonib qoldi va ko‘p xatolarni xato bilmay qo‘ydi”, [1;270-bet]– deya fikr bildiradi.

Reinkarnatsiya paranormal hodisaning bir ko‘rinishidir. Ruhning bir tanadan boshqa tanaga o‘tishi nazariyasi ilmiy adabiyotlarda “reinkarnatsiya”, arab tilida esa “tanosuh” atamasi bilan yuritiladi. Mazkur asossiz nazariya, asosan, e’tiqodiy qarashlari buzilgan boshqa din vakillarida uchraydi. Islom dinida esa bu kabi nazariyalar qat’iyan rad etiladi. Bu haqida adabiyotshunos Bahodir Karim quyidagicha fikr bildiradi: “Bir narsa aniqki, qissa qahramoni ruhiy-g‘aybiy olamga oshno etilib, dunyo falsafasidagi, xususan, hind va yunonlardagi inson ruhining o‘lgandan keyin boshqa narsaga ko‘chish haqidagi “tanosuh” e’tiqodiga bog‘lab qo‘yiladi”.[2;20-bet] Diniy ahkomlarimizga ko‘ra, bunday g‘ayri e’tiqodiy qarashlar, ya’ni o‘lgan odamning ruhi yana shu dunyoga hayvon yoki o‘simlik bo‘lib kelishi botil amal hisoblanadi. Zero, inson vafot etgandan keyin ruh tanasini tark etadi va bundan keyingi hayoti ruhning ko‘chishi tarzida davom etishi ma’rifiy va ilmiy haqiqatlarga ziddir. Muallifning reinkarnatsiya nazariyasiga oid qarashlari tanqidiy mulohazalarga yo‘l ochadi.

Bu haqida adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov shunday deydi: “Keyingi yillar o‘zbek nasrini kuzatar ekanman, ijodkorlarimiz orasida shu kabi g‘ayriinsoniy g‘oyalarga, shaytanat afsunlariga bilib-bilmay mahliyo bo‘lish kayfiyati borligini sezaman. Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasi ham shunday qusurdan holi emas. Avvalo, markazidagi o‘lib ketgan ota obrazi o‘quvchi ko‘z o‘ngida odam emas, “tilla baliq” shaklida gavdalanadi. Ammo ushbu tilla baliqni na milliy poetik tafakkur zahirasi, na muallif ma’naviy iearxiyasi (grek. hieros – ilohiy va arche – hokimiyat), na hikoyadagi obrazlar ruhiy-madaniy potensiyasi nuqtai nazaridan badiiy ramz sifatida qabul qilib bo‘ladi. Chunki bunday talqin har qanday holatda, har uchala subyekt uchun ham, g‘arbga taqlid o‘laroq, begona, g‘ayrihaqqoniy bo‘lib qolaveradi”.[1;270-bet]

Umuman olganda, reinkarnatsiya g‘oyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida aksariyat yozuvchilar tomonidan badiiy tajriba sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bu g‘oyaning ma’rifiy va diniy asoslari milliy an’analarimiz va ma’naviy qadriyatlarimizga zid ekanligi adabiyotshunos olimlar tomonidan qat’iy e’tirozlarga sabab bo‘ldi. Isajon Sultonning “Munojot” qissasi va “Qismat” hikoyasidagi ruhning hayvonot va nabotot olamiga ko‘chishi haqidagi epizodlar muallifning badiiy-estetik, g‘oyaviy maqsadiga xizmat qilishi mumkin, ammo bu holat islom ahkomlariga badiiy tafakkur tamoyillariga mos kelmaydi. Shu bois bu kabi epizodlar, bir tomondan, zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi yangicha yondashuv va yangicha talqinlar natijasi o‘laroq bo‘lsada, ikkinchi tomondan, ilmiy-diniy, ma’rifiy mezonlar nuqtayi nazaridan tanqidiy bahoga ega. Adabiyotshunoslar e’tirof etganidek, reinkarnatsiya g‘oyasining o‘zbek nasriga kirib kelishi g‘arb an’analarining ta’siri bo‘lib, u milliy va adabiy-estetik tafakkur bilan sintezlashmaydi.

Qissada paranormal epizodlardan yana biri Latofat xolaning vafot etganligi haqidagi xabarni G‘arib oldindan bilishi va onasiga yetkazishi voqeasidir. G‘arib notanish bir insonni Latofat xolaning darvozasi yonida uchratadi. Qizig‘i, bu odamni G‘arib avval Abdurauf

boboning janozasida ham ko‘rgan edi. Notanish odam janoza namoziga qatnashmay, tobutning bosh tarafida turgani va G‘aribga tikilib qarashidan uning bu olamdan emasligi, noma’lum va yashirin ilohiy kuchlarning inson qiyofasidagi ko‘rinishi ekanligi ayonlashadi. Muallif yolg‘iz G‘arib ko‘zi va nigohi bilan notanish kimsani tasvirlaydi. Zero, bu kabi g‘ayritabiiy holatlar faqatgina G‘arib fitratiga va olamiga xos edi.

Bizningcha, notanish kimsa o‘lim xabarini olib keluvchi Azroilning badiiy timsolidir. Sababi muallifning boshqa asarlarida ham xuddi shu kabi voqealar uchraydi. Jumladan, “Bog‘i Eram” hikoyasida yosh bola g‘ayritabiiy tarzda bir nuqtaga tikilib qoladi va biz uchun noma’lum qatlamlarda sayr etadi: qishloqdoshi Xolmuhammad buvaning ismi yozilgan bargni ko‘rishi va ushbu voqeadan so‘ng Xolmuhammad buvaning vafot etishi voqelikning sirli tomonlarini ko‘rsatadi. Ma’lumki, bolaning xayolot dunyosi o‘ta keng va boy. Bola tavsifidan u sayr etgan makon o‘zga olamda ekanligi, samoviy va go‘zal manzaralaridan jannat tavsifi anglashiladi. Ilohiy kuchlar orqali bolaga umri poyoniga yetgan insonlar taqdiri haqida xabar beriladi. Ko‘rinadiki, muallif “Munojot” qissasi va “Bog‘i Eram” hikoyalarida paranormal voqeliklardan inson umrining nafaqat moddiy, ijtimoiy tomonini, balki botiniy va ruhiy olami, hayot va o‘lim, haqiqat va ilohiylik orasidagi bog‘liqlikni ochishda foydalanadi. Ikkala asarda ham muallif intiutiv bilim, ruhiy sezgirlik, qalb ko‘zi bilan ilohiy haqiqatni his etish qobiliyatlarini bolalar obraziga bejizga yuklamaydi. Zotan, bola tasavvuri va xayolot dunyosi kattalar dunyosidan balandroqdir.

“Asar qahramoni chumoli harakatini kuzatayotib hayot, mangulik haqida fikr yurita boshlaydi. Allaqanday muqaddas ruh, shafoat yog‘dusi uni qo‘llayotganligi seziladi. Bu yerda yana bir shubha uyg‘onadi: muallif qarashlari qahramon dunyosi bilan qorishib ketmayaptimi? Qizig‘i, tasvirda sun’iylik, uydirma his etilmaydimi? Kitobxon G‘arib ruhiyatidagi jarayonlarni to‘ppa-to‘g‘ri qabul qiladi. Qissa qahramoni o‘t-o‘lan, dov-daraxtni mangu harakatda ko‘radi. Bu ham yetmaganday, qari bir daraxt juda qadim zamonda yashab o‘tgan donishmand mo‘ysafidning qotib qolgan timsoli bo‘lib tuyuladi. Hamma dong qotib uxlaydigan tunlarda G‘arib ajdodlar ruhi bilan suhbat quradi. Ko‘zga ko‘rinmas ruhlar G‘aribni goh yig‘latib, goh kuldiradilar: qalbiga behalovatlikni singdiradilar. Xullas, qissada reallikning teskari tomoni, inson ruhiyatining sirli manzaralari tasvirlanadi”. [5;192-bet]

XULOSA. Mustaqillik davriga kelib qissachilik o‘zining asl o‘zanlariga qaytdi, barcha ta’qiqlangan syujet, motiv va epizodlar qatorida paranormal epizodlarning ham xilma-xil badiiy talqinlari maydonga keldi. Isajon Sultonning “Munojot” qissasida va “Qismat”, “Bog‘i Eram” hikoyalarida “paranormal epizodlar” bola obrazining chuqur xayolot va tush mahsuli, ong osti bolalik qo‘rquvlarining samarasi, ruhiy-psixologik xavotirning mahsuli sifatida tajassum topdi. G‘arib obrazida bolalarcha beg‘ubor va sof xayollar ta’sirida paydo bo‘lgan xafvsiz va ziyon yetkazmaydigan yaratiqlar va sirli hodisotlarning yangicha talqini aks etdi. Umuman, Isajon Sulton ijodida tabiat tasvirlari, diniy-mifologik motivlar, mistik olam haqidagi tasavvurlar, personajlar xatti-harakatidagi g‘ayritabiiylik va dunyoga o‘zgacha nigoh bilan qarash falsafasi yetakchilik qiladiki, ularning aksariyati paranormal epizodlar vositasida poetik talqin etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф.Жанр.Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015 – Б. 270.
2. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 20.
3. Султон И. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 95.
4. Раҳмат Р. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача. Сўнгсўз ўрнида//Боқий дарбадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 262.
5. Расулов А. Шафоат ёғдусидан баҳрамандлик // Шарқ юлдузи, 1991. – № 10. – Б. 192.
6. Gogol Nikolay. Taras Bulba. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 304.